BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SUYUNOV MIRJALOL XO'JAMQUL O'G'LI

ICHKI ISHLAR TIZIMIDA INSPEKTOR-PSIXOLOGLARNI TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 159.9.07:343.83:351.74(575.1)

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по психологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the Psychological Sciences

Suyunov Mirjalol Xo’jamqul o‘g‘li
Ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 3

Суюнов Мирджалол Худжамкул угли
Социально-психологические особенности подготовки инспекторов-психологов в системе внутренних дел. 23

Suyunov Mirdjalal Khujjamkul ugli
Psychodiagnostics and psychocorrection of emotional stress in pedagogical activity 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SUYUNOV MIRJALOL XO'JAMQUL O'G'LI

ICHKI ISHLAR TIZIMIDA INSPEKTOR-PSIXOLOGLARNI TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/P805 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Fayziyev Zohiddin Xasanboyevich** psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Qodirov Obid Safarovich** psixologiya fanlari doktori(DSc), professor
	Xodjiboyev Ilxomjon Islomjonovich psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD.03/04.01.2025.P.190.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___» _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi , 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: bxu.@bxu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «____» _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.R.Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

Sh.Sh. Ostanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

D.A.Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ichki ishlar xodimlarini davr talablari asosida tayyorlash, inspektor-psixologlar shaxsining o‘rganish va faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, jismoniy va ruhiy kamolotini ta’minlash, shuningdek, psixologik tayyorgarligi masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Politsiya psixologiyasi va xulq-atvor fanlari maktabi (AQSh) “...xodimlarni tanlash, psixologik saralash (skrining), xulq-atvor tahlili, emotsional boshqaruv, ijtimoiy konpetensiya, stressga chidamlilik...”[1] masalasiga urg‘u berilgan. Bu borada xodimning ruhiy barqarorligi, jismoniy kamoloti, psixotipik xususiyatlarini shakllantirish, ichki boshqaruv kuchi va irodaviy sifatlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlash, ularning irodasi, emotsional barqarorligi va faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini rivojlantirish kabi masalalarga e’tibor oshib bormoqda. Inspektor-psixologlarni emotsional-irodaviy va motivatsion sohasini tadqiq etish, maxsus psixologik tayyorgarlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda unga ta’sir etuvchi psixologik mezonlarni aniqlash ishlari dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada inspektor-psixologlarni psixofiziologik holatini o‘rganish, ularni faoliyatdagi motivatsiyasini aniqlash va tadqiq etish, xodimlarni turli murakkab vaziyatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish bo‘yicha muammolarni aniqlash masalalariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ichki ishlar organlarida xotin-qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ma’naviy hamda jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanib, zarur huquqiy-me`yoriy asoslari yaratilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Hukumatining tegishli qarorlari bilan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarida voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektor lavozimlari joriy etish”[2] masalasiga asoslanib, tizimda har tomonlama bilimli va yetuk, fidoyi, vatanparvar, qaror qabul qilishi barqaror, turli vaziyatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qiladigan xodimlarni tayyorlash masalasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish uchun ham keng imkoniyatlar ochilmoqda. Inspektor-psixologlar faoliyatida emotsional holat, irodaviy sifatlar va motivatsion sohani psixodiagnostika qilish, uni korreksiyalash va zamonaviy yechimini topishga oid yangi ilmiy yo‘nalishlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 01-fevraldagi O‘RQ-902-

[1] https://ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/use-psychologists-selecting-and-training-police-policemanagerial ?utm source

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 01-fevraldagi O‘RQ-902-son “O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 248-moddasiga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. 2024. https://lex.uz/uz/docs/-6786532?ONDATE=02.02.2024

son “O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 248-moddasiga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hissiyot, iroda, motiv muammosining nazariy-metodologik masalalari, inspektor-psixologlarni faoliyatga tayyorlash, emotsional holatini muvofiqlashtirish, irodaviy sifatlar, faoliyat motivatsiyasining shakllanishi, inspektor-psixologlarga xos psixologik komplekslar, inspektor-psixologlar shaxsiy sifatlari rivojlanishi kabi masalalar mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, Sh.G‘aybullayev, E.G‘oziyev, F.Haydarov, R.Dushanov, D.Karimov, Sh.Qosimov, O.Qodirov, F.Rahmatov, F.Rasulova, A.Rasulov, R.Samarov, B.Sirliyev, F.Shermatov, Sh.Toshpo‘latov, L.Tursunov, R.Xudoyberdiyev, B.Yo‘ldoshev, Sh.Yo‘ldoshev va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan B.Ananyev, A.Batirshina, A.Bodalev, L.Bojovich, V.Feshenko, E.P.Ilin, V.Ivannikov, V.Kalin, A.Leontyev, A.Puni, V.Petrovskiy, Ye.Smirnova, L.Vigotskiy, M.Chumakov, V.Shlyapnikova va boshqalar tomonidan inspektor-psixologlarni muayyan faoliyatga psixologik tayyorlash asoslari, umumiy va maxsus psixologik tayyorlash mexanizmi, emotsional, irodaviy hamda motivatsion jihatdan shakllantirish tizimining ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Xorij psixologiyasida inspektor-psixologlarning emotsional holati va uning namoyon bo‘lishini tadqiq etish, xavotir va stress kechinmalarining xodim faoliyatiga ta’siri, ish jarayonidagi chidamlilik darajasi va motivatsiyaning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, muvaffaqiyat motivatsiyasi hamda psixologik

tayyorgarlikni amaliy o‘rganishning psixodiagnostik masalalari bo‘yicha V.Xofman, X.Xekxauzen, U.Jeyms, I.Kant, D.A.Kenny, J.Lokk, E.Meyman, H.Shaffer, A.Venger, R.J.Hauenstein va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Biroq mazkur olimlarning tadqiqotlarida ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, emotsional-irodaviy barqarorlik, kasbiy motivatsiya va ijtimoiy-psixologik moslashuvning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularni rivojlantirish mexanizmlari yaxlit ilmiy muammo sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173-raqamli “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2022-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni tayorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inspektor-psixologlarni faoliyatga psixologik tayyorlashda emotsional-irodaviy va motivatsion sohalarning darajaviy ifodalanishidagi differensial farqlar mavjudligini dalillash;

inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligini aniqlashda, ulardagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi ko‘rsatgichlari ustuvor harakterga ega ekanligini va irodaviy sifatlarni shakllantirishning mexanizmlarini isbotlash;

inspektor-psixologlarning maxsus psixologik psixologik tayyorgarlik darajasini oshirishda irodaviy sifatlarni shakllantirishning muhimligi, emotsional barqarorlikni ta’minlash va muvaffaqiyat motivatsiyasi ta’sirida rivojlanishini asoslash;

ichki ishlar organlari tizimida inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlashning ijtimoiy-psixologik modelini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni tayorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tajriba-sinovga Qashqadaryo viloyatidan 108 nafar va Samarqand viloyatidan 102 nafar ichki ishlar tizimida faoliyat olib borayotgan inspektor-psixologlar jalb etildi. Tadqiqotda jami 210 nafar respondent qatnashgan.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni tayorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatuv, anketa, kontent-tahlil metodlari, shuningdek, inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligini o‘rganish uchun M.Chumakovaning “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi, E.P.Ilin va E.K.Feshenkolarning “Chidamlilikni baholash” so‘rovnomasi va Elers tomonidan ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish” metodikasi hamda G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev va S.V.Firsovalarnng “Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish” kabi metodikalar hamda matematik- statistik metodlaridan (foizli tahlil, faktorli tahlil, Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsientini

hisoblash) foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlashda shaxs hayotiy yo‘nalganligining (“ichki”, “muloqot” va “faoliyat”) differensial namoyon bo‘lishi faoliyatdagi qat’iyatlilik, individual mahoratini “ish jarayonidan zavqlanish”, “o‘zaro hamkorlik” bilan bog‘liq praksik hislar asosida shakllanishi orqali emotsional-irodaviy va motivatsion sohalarga ta’sir etish muhimligi dalillangan;

inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligini aniqlashda ulardagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, tafakkuri kengligi, ijtimoiy mas’uliyat hissi hamda irodaviy sifatlar orqali faoliyatga bevosita integratsiyasini ta’minlanishi tufayli ish jarayonidagi hissiyot, kayfiyat va faollik ko‘rsatgichlari ustuvor xarakterga ega ekanligi isbotlangan;

inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarni shakllanganligi jamoaviy faoliyatda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida rivojlanishiga muvofiq, muvaffaqiyatga intilish motivining namoyon bo‘lishiga bog‘liqliq ekanligi isbotlangan;

inspektor-psixologlarda faoliyatga psixologik tayyorgarlik darajasini oshirishda irodaviy sifatlarni shakllantirishning muhimligiga ko‘ra, taktik va intuitiv tafakkur, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ta’sirida rivojlanishiga asoslanib, psixokorreksion faoliyatga mualliflik “ichki ishlar organlari tizimida inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlashning ijtimoiy-psixologik modelini” ni takomillashtirish samarali ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligining emotsional holatini belgilovchi hissiyot, kayfiyat va faolligi ko‘rsatkichlariga o‘zaro bog‘liqligi ifodalangan;

inspektor-psixologlarda maxsus psixologik tayyorgarlikning irodaviy sifatlar, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liq psixologik xususiyatlar yoritilgan;

irodaviy sifatlarni shakllantirish inspektor-psixologlarning faoliyatga psixologik tayyorlash jarayonida zarur ekanligi hamda hissiy-irodaviy sifatlar bilan bog‘liqligi samaradorlik natijasi sifatida ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot metodologik jihatdan ta’minlangani, metodik tadqiqotlarning amalga oshirilgani, empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilishning reprezentativligi, to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligi, aniqligi, matematik-statistikaning aniq metodlari qo‘llangani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligi va tadqiqot metodlarining ishonchliligidan kelib chiqadi, shuningdek, empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari, mazmuniy-statistik tahlil, o‘ziga xos metodologik yondashuvlarning tadqiqotimizda kompleks ravishda qo‘llanishi inspektor-psixolog shaxsi hamda uni faoliyatini o‘rganish yo‘nalishiga o‘ziga xos nazariy hissa bo‘lib qo‘shiladi hamda ularni joriy etish orqali psixologik xizmat ko‘rsatish muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va

empirik tahlillardan “Shaxs psixologiyasi”, “Psixodiagnostika”, “Ichki ishlar sohasida psixologik xizmat”, “Ijtimoiy psixologiya” fanlaridan o‘quv qo‘llanma hamda darsliklar tayyorlashda, shu bilan birga, natijalar ichki ishlar tizimida inspektor-psixolog shaxsining milliy mentalitetga xos etnopsixologik xususiyatlarini tizimli ravishda sharhlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarni tayorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali psixologik tayyorganlik holatini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlashda shaxs hayotiy yo‘nalganligining (“ichki”, “muloqot” va “faoliyat”) differentsial namoyon bo‘lishi faoliyatdagi qat’iyatlilik, individual mahoratini “ish jarayonidan zavqlanish”, “o‘zaro hamkorlik” bilan bog‘liq praksik hislar asosida shakllanishi orqali emotsional-irodaviy va motivatsion sohalarga ta’sir etish muhimligi dalillanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli buyrug‘i bilan “Kasbiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli ma’lumotnomasi). Natijada inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligini ta’minlash samaradorligini oshirishga erishilgan;

inspektor-psixologlarning maxsus psixologik tayyorgarligini aniqlashda ulardagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi tafakkuri kengligi, ijtimoiy mas’uliyat hissi hamda irodaviy sifatlar orqali faoliyatga bevosita integratsiyasini ta’minlanishi tufayli ish jarayonidagi hissiyot, kayfiyat va faollik ko‘rsatgichlari ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlanganligiga oid tavsiyalar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli buyrug‘i bilan “Umumiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi psixologlarning ichki ishlar tizimida inspektor-psixologlarga umumiy psixologik bilimlarni qo‘llash borasidagi ko‘nikmalarini yanada oshirilganligi kuzatilgan;

inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarni shakllanganligi jamoaviy faoliyatda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida rivojlanishiga muvofiq, muvaffaqiyatga intilish motivining namoyon bo‘lishiga bog‘liqliq ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv- ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli buyrug‘i bilan “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli ma’lumotnomasi). Natijada inspektor-psixologlarning faoliyatda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini shakllantirishga doir bilim va ko‘nikmalari oshirilgan;

inspektor-psixologlarda faoliyatga psixologik tayyorgarlik darajasini oshirishda irodaviy sifatlarni shakllantirishning muhimligiga ko‘ra, taktik va intuitiv tafakkur, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ta’sirida rivojlanishiga asoslanib, psixokorreksion faoliyatga mualliflik “ichki ishlar organlari tizimida inspektor-psixologlarni maxsus psixologik tayyorlashning ijtimoiy-psixologik

modelini” ni takomillashtirish samarali ekanligi aniqlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli buyrug‘i bilan “Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2026-yil 30-iyundagi PM-135-sonli ma’lumotnomasi). Natijada inspektor-psixologlarni faoliyatga psixologik tayyorlash mexanizmlarini boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 163 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot usullari, obyekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar organlari tizimida inspektor-psixologlarni faoliyatga maxsus psixologik tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida uzoq va yaqin xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan, inspektor-psixolog shaxsi, xodimlarining psixologik barqarorligi va kasbiy tayyorgarligi masalalariga mualliflik ta’riflari batafsil keltirilgan.

O‘zbekistonda psixolog olimlarning ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida, jumladan, A.Abduqodirov, R.Dushanov, D.Karimov, Sh.Toshpulatov, F.Rasulova, R.Samarov, B.Sirliev, F.Raxmatov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ichki ishlar xodimlari shaxsi va ularning psixofiziologik holati bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish, irodaviy sifatlar va iroda akti, motivatsion sohalar va uning inspektor-psixologlar faoliyatida namoyon bo‘lishi borasida rus psixologlari tomonidan keng doirada tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, iroda, emotsional kechinmalar va e’tiqod masalasi V.Shlyapnikova, E.P.Ilin, A.Leontev, Ye.Smirnova, M.Chumakov, V.Petrovskiy, A.Puni, V.Feshenko, L.Bojovich, V.Ivanniko va boshqalarning izlanishlarida chuqur yoritilgan.

Xorijlik olimlar H.J.Shaffer, J.Lokk, D.A.Kenny va R.J.Hauenstein va boshqalar tomonidan inspektr-psixologlarning shaxsiy sifatlari, temperamenti, xarakteri va hissiy-irodaviy holati nazariy tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Inspektor-psixologlar maxsus psixologik holatini o‘rganishning psixodiagnostik sharhi va empirik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, o‘rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu bobda tadqiqotga jalb etilgan sinaluvchilar xarakteristikasi, tadqiqot ishida qo‘llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, tadqiqot dasturi va bosqichlari, olingan natijalarning empirik tahlili hamda metodika shkalalari o‘rtasidagi korrellyatsion bog‘lanishlarning ko‘rsatkichlari o‘z ifodasini topgan.

Asosiy tadqiqotning birinchi bosqichida inspektor-psixologlarning hissiy kechinmalari, faolligi va emotsional barqarorlik darajasini tahlil qilish maqsadida G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev va S.V.Firsovalar tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish” metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalar miqdori va statistik ma’lumotlar 1-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

1-jadval.

G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev va S.V.Firsovalarning “Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish” metodikasi bo‘yicha respodentlardan olingan ko‘rsatkichlar (Studentning t-mezoni bo‘yicha (n=210))

Shkala	Sinaluvchilar Obyekti	n_1 n_2	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish	t	p
Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish	Qashqalaryo Viloyati	108	41,61	2,8	-2,9	0,05*
	Samarqand Viloyati	102	38,4	3,0		
Faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish	Qashqalaryo Viloyati	108	44,67	2,1	-1,5	0,51
	Samarqand Viloyati	102	42,91	3,8		
Ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilish	Qashqalaryo Viloyati	108	39,46	2,7	-2,4	0,05*
	Samarqand Viloyati	102	41,29	3,7		

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001.

Inspektor-psixologlarda emotsional barqarorligini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilish va emotsional holatlarini o‘lchashga xizmat qiluvchi metodikasidan foydalanilgan.

Inspektor-psixologlarda birinchi shkala ya’ni “Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish” Qashqadaryo viloyati inspektor-psixologlarida yuqori natija namoyon bo‘lgan (t-2,9; -p<0,05). Bu Qashqadaryo viloyati inspektor-psixologlari hissiyotga berilish darajasi, uni keltirib chiqaruvchi ijobiy va salbiy omillar, jamoa a’zolari bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yib borishdagi ma’suliyat, turli xil qiyinchiliklarga duch kelish oqibatida namoyon bo‘ladigan kechinmalar, berilgan topshiriqlarni bajarishda noqulayliklarning vujudga kelishi, tayyorgarlik mashg‘ulotlariga kechishi va rahbar psixologlarning buyruqlarini so‘zsiz ravishda bajara olishi kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligidan dalolot bergan.

Keyingi shkala “Faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish” darajasi har ikkala sinaluvchi (inspektor-psixolog)lar obyektida ham o‘rtacha darajani tashkil qilgan (t-1,5; -p<0,51). Bu omilning ham inspektor-psixologlarda mavjudligi, hamkasabalarida kuzatiladigan turli xil emotsional holatlar o‘zgarishi ularga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Shu jihatdan psixologik mashg‘ulotda jamoaviy “Men”ning ustunligi inspektor-psixologlarda ijtimoiy-irodaviy sifatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi isbotlangan.

Keyingi shkalaga ko‘ra, inspektor-psixologlarda “Ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilish” shkalasi bo‘yicha olgan natijalar Samarqand viloyati sinaluvchilaria yaqqol namoyon bo‘lgan (t-2,5; -p<0,5). Bu esa Samarqand viloyati inspektor-psixologlarda irodaviy sifat ular hayoti davomida yuzaga keladigan agressiv reaksiyalar bilan bog‘liq. Bunday holatda inspektor-psixologlarda jahldorlik, sabrsizlik, nima bo‘lishidan qat’iy nazar belgilangan maqsadga erishish istagi paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu turdagi shaxslar frustratsion to‘siq yuzaga kelgan paytda buni vujudga kelgan vaziyatning ta’siri deb tushunadi hamda bu vaziyat va omadsizlikda o‘zidan boshqa barchani ayblaydi, ya’ni hamma muammoli vaziyatni tashqi omillar orqali qidiradi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida E.P.Ilin va E.K.Feshenko tomonidan ishlab chiqilgan “Chidamlilikni baholash” so‘rovnomasidan foydalanilgan va quyidagi natijalar qo‘lga kiritilgan (2-jadval).

2-jadval.

E.P.Ilin va E.K.Feshenkoning “Chidamlilikni baholash” so‘rovnomasi bo‘yicha respodentlardan olingan ko‘rsatkichlar (Studentning t-mezoni bo‘yicha (n=210))

Shkala	Sinaluvchilar Obyekti	n_1 n_2	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish	t	p
Chidamlilik	Qashqadaryo viloyati	108	4,17	2,3	-2,6	0,5*
	Samarqand viloyati	102	3,74	3,6		

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001

Inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar yuzasidan olingan tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, inspektor-psixologlarning ko‘rsatkichlari o‘ziga xos amaliy natijalarni keltirib chiqargan. Qashqadaryo viloyati inspektor-psixologlarida “Chidamlilik” shkalasi biroz yuqori ekanligi kuzatildi (t-2,6; -p<0,5). Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan inspektor-psixologlarda irodaviy faoliyatning bevosita motivatsiyasi tariqasida harakatlar tizimini vujudga keltiruvchi, ularni tartibga soluvchi rang-barang vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Inspektor-psixologlar jamoa bilan hamkorlikda ishlashga moyil bo‘lishadi, lekin, ko‘pincha ularlarda jamoadami yoki boshqalar bilan bo‘lgan munosabatida ishonchi sustligi tufayli ular hamkorlikda ishlashga biroz qiynalishadi.

Navbatdagi tadqiqot ishi doirasida M.Chumakovaning “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi o‘tkazilgan va quyidagi tahlillar ilgari surilgan (3-jadval).

3-jadval.

M.Chumakovaning “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi bo‘yicha respodentlardan olingan ko‘rsatkichlar (Studentning t-mezoni bo‘yicha (n=210))

Shkala	Sinaluvchilar Obyekti	n_1 n_2	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish	t	p
Irodaviy mas’uliyatlilik	Qashqadaryo viloyati	108	4,42	3,1	-1,7	0,25
	Samarqand viloyati	102	4,56	3,0		
Jur’atlilik	Qashqadaryo viloyati	108	3,62	3,5	-2,5	0,05*
	Samarqand viloyati	102	5,48	2,6		
Matonatlilik	Qashqadaryo viloyati	108	5,89	2,7	-2,4	0,05*
	Samarqand viloyati	102	4,54	3,5		
Qat’iylik	Qashqadaryo viloyati	108	3,85	3,7	-2,7	0,05*
	Samarqand viloyati	102	4,90	2,7		
G‘ayratlilik	Qashqadaryo viloyati	108	2,70	3, 4	-1,7	0,37
	Samarqand viloyati	102	2,59	3,2		

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001.

Ichki ishlar tizimida faoliyat olib borayotgan inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillar yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, irodaviy sifatlar inspektor-psixologlarda ish jarayonida yuzaga keladigan turli xil to‘siqlarni keltirib chiqaruvchi psixologik xususiyatlar va bu xususiyatlar xodimda irodaviy sifatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin isbotlandi. Olingan natijalar irodaviy sifatlar metodikasi bo‘yicha ularning ko‘rsatgan natijalari o‘zlashtirgan bilim-malakalarning kelgusi kasbiy faoliyatida samarali qo‘llashini anglatadi. Inspektor-psixologlar birinchi shkala bo‘yicha “Irodaviy mas’uliyatlilik” omili bilan alohida xarakterlangan. Bundan ko‘rinadiki, har ikkala viloyat inspektor-psixologlarida (n=210) ham “Irodaviy mas’uliyatlilik” shkalasi standart ball ko‘rsatkichi bo‘yicha me`yorda ekanligini namoyon qilgan (t-1,7; -p<0,25). Nazoratning ichki lokallashtirishiga xos xodimlar maqsadga erishish yo‘lida mas’uliyat yoki javobgarlikni his etadilar, o‘zini o‘zi tahlillash imkoniyatiga ega hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya jarayonida shaxsda lokallashtirishning har ikkala, ya’ni eksternal, internal turini shakllantirish tufayli uning mustahkam shaxsiy fazilatiga aylantirish mumkin.

Navbatdagi “Jur’atlilik” shkala bo‘yicha olingan natijalar o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichni namoyon qilgan. “Jur’atlilik” shkalasining barqarorligi Samarqand viloyati inspektor-psixologlarda kuzatildi (t-2,5; -p<0,5). Bu esa, ulrning kasbiga nisbatan matonat va mas’uliyatlilik sifatlarining yetukligini bildiradi. Shuni ham aytish mumkinki, shaxsda ichki motivlar kurashining paydo bo‘lishi uchun unga mas’uliyat, javobgarlik hissining yuklatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug‘ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg‘onishi favqulodda unda irodaviy zo‘r berishlar vujudga kelishi lozim. Bu voqelikni tushuntirish yoki izohlash uchun psixologik nuqtai nazardan iroda aktining tarkiblaridan iborat ekanligi aniqlanish uchun uning unsurlari, bo‘linmalari,

tuzilishi to‘g‘risida mulohaza yuritish joiz.

Sinaluvchilarda “Matonatlilik” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich o‘rganilganda o‘zaro tafovutlar aniqlangan (t-2,4; -p<0,5). Bu ko‘rsatkich standart ball bo‘yicha Qashqadaryo viloyati inspektor-psixologlarda yuqori ekanligini bildiradi. Bu holatda o‘zining ruhiy holatini o‘zgartirishga qaror qiladi, qondirilishi lozim bo‘lgan ehtiyojlarini muayyan tartibga keltiradi, ularni birlamchi va ikkilamchi darajalarga ajratishni lozim topadi.

Keyingi shkala “Qat’iylik” shkalasi bo‘yicha inspektor-psixologlar natijalari tahlil qilinganda Samarqand viloyati respodentlarida nisbatan yuqori ekanligiga guvoh bo‘lindi (t-2,7; -p<0,5). Bu esa, ularda kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorligi va barqaror shaxs sifatlari shakllanganligidan далолат beradi. Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishishнинг yo‘l-yo‘riqlari haqiqatdan ham aniq istaklarning ushalishiga xizmat qilishi to‘g‘risida oqilona qarorga kelishda o‘z ifodasini topadi. Psixologik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omilkor, odilona ekanligi to‘g‘risida qarorga kelinganida, maqsadga muvofiqligi ishonchli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qiyinchiliklarsiz sodir bo‘ladi.

Yakuniy “G‘ayratlilik” shkalasi bo‘yicha natijalar tahlil qilinganda, ikkita sinaluvchilar obyektida ham bir xil ko‘rsatkich namoyon bo‘ldi (t-1,7; -p<0,37). Sinaluvchilarda qarorga kelish va uni amalga oshirishda qiyinchiliklarni bartaraf etish, irodaviy zo‘r berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat psixologik holatlarda inson tomonidan qarorga kelish o‘z ehtiyojlarining ustuvorligi darajasi ta’sirini zaruriy chora tariqasida yengish bilan uyg‘unlashgan, jiddiylik, zo‘riqish xususiyatli ichki zo‘r berish jarayoni bilan uzviy bog‘liqlikka ega.

Tadqiqot ishining oxirgi bosqichida T.Elersning “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish” so‘rovnomasidan foydalanilgan va quyidagi statistik natijalar qo‘lga kiritilgan (4-jadval).

4-jadval.

T.Elersning “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish” so‘rovnomasi bo‘yicha respodentlardan olingan ko‘rsatkichlar (Studentning t-mezoni bo‘yicha (n=210))

Shkala	Sinaluvchilar obyekti	n_1 n_2	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish	t	p
Muvaffaqiyatga erishish	Qashqadaryo viloyati	108	12,1	3,3	-2,7	0,05*
	Samarqand viloyati	102	15,3	2,8		
Muvaffaqiyatsiz-likdan qochish	Qashqadaryo viloyati	108	12,4	2,4	-2,4	0,01*
	Samarqand viloyati	102	8,2	3,8		

Izoh: * p≤0,05, ** p≤0,01, ***p≤0,001.

O‘tkazilgan tadqiqot natijlariga ko‘ra, sinaluvchilarda “Muvaffaqiyatga erishish” shkalasi o‘rganilgada, Samarqand viloyati sinaluvchilarida biroz yuqori ekanligi qayd etdi (t-2,7; -p<0,05). Bu shundan dalolat beradiki, muvaffaqiyatga erishish uchun xodimlar barcha potensiallarini safarbar etib, faoliyatda uchraydigan to‘siq va qiyinchiliklar, shuningdek, yuqori ishonch darajasini

namoyon etadilar.

“Muvaffaqiyatsizlikdan qochish” motivatsiyasi koʻrsatkichi boʻyicha natijalar Qashqadaryo viloyati faoliyat olib boradigan inspektor-psixologlarda yuqori namoyon qilganligi bilan alxohida izohlanadi (t-2,4; -p<0,05). Bu ularni muvaffaqiyatsizlikdan qochishi irodaviy sifatlar endilikda takomillashayotgani, psixologik jihatdan faoliyatda turli toʻsiqlarga duch kelishi, jamoada yolgʻizlik kayfiyatining mavjud boʻlishi, murakkab topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar va moslashuv jarayoni kabi omillar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Biz oʻz tadqiqotimizni yoritishda inspektor-psixologlarning irodaviy sifat va xususiyatlari oʻrtasidagi statistik koʻrsatkichlar va birliklarni e’tiborga olgan holda umumiy oʻrtacha koʻrsatkichlar va omilli tahlilini koʻrib chiqdik. Tadqiqotda qatnashgan inspektor-psixologlarning hissiy holati va shaxs irodaviy sifatlari soʻrovnomalari oʻrtasidagi oʻzaro korrelyatlari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

5-jadval.

“Emotsional holatlarda oʻzini oʻzi nazorat qilish” metodikasi va “Shaxs irodaviy sifatlarini oʻrganish” soʻrovnomasi oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻliqlik koʻrsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti boʻyicha)

Emotsional holatlarda oʻz-oʻzini nazorat qilish	Emotsional holatlarda oʻz-oʻzini nazorat qilish	0,497*
	Ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish	0,584**
	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,476*
	Matonatlilik	0,488*
Faoliyatda oʻz-oʻzini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish	0,467*
	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,481*
Ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish	Irodaviy mas’uliyatlilik	0,479*
	Jur’atlilik	0,493*
Irodaviy mas’uliyatlilik	Jur’atlilik	0,549**
Jur’atlilik	Matonatlilik	0,561**
Matonatlilik	Qat’iylik	0,455*
Qat’iylik	Emotsional holatlarda oʻz-oʻzini nazorat qilish	0,533**
Gʻayratlilik	Ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish	0,521**

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001

Inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarning psixologik xususiyatlari boʻyicha tadqiqotdan olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, inspektor-psixologlarning irodaviy sifatlar va hissiy holatlar koʻrsatkichlari oʻrtasidagi imkoniyatlarni oʻrganish soʻrovnomalari boʻyicha shkalalar orasidagi korrelyatsion aloqalar koʻproq hissiyot omillari: faoliyatda oʻz-oʻzini nazorat qilish (r=0,497; r≤0,05), ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish (r=0,584; r≤0,01), irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,476; r≤0,05) va matonatlilik (r=0,488; r≤0,05) omillari bilan, faollik shkalasi: ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish (r=0,467; r≤0,05), va irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,481; r≤0,05) omillari bilan ijtimoiylashuvda oʻz-oʻzini nazorat qilish shkalasi: irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,479; r≤0,05) va jur’atlilik (r=0,493; r≤0,05) omillari bilan, irodaviy mas’uliyatlilik shkalasi: jur’atlilik (r=0,549; r≤0,01) omillari bilan, jur’atlilik shkalasi: matonatlilik

(r=0,561; r≤0,01) omillari bilan, matonatlilik shkalasi: qat'iylik (r=0,455; r≤0,05) omillari bilan, qat'iylik shkalasi: faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish (r=0,533; r≤0,01) omillari bilan, g'ayratlilik shkalasi: ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish (r=0,521; r≤0,01) kabi omillar orasida o'rta darajada korrelyatsion aloqalar mavjudligi aniqlandi.

Keyingi jadvalda ham tajribaga jalb etilgan inspektor-psixologlarning chidamlilik va muvaffaqiyatga erishish so'rovnomalari bo'yicha o'zaro korrelyatsion bog'liklar keltirilgan.

6-jadval.

"Chidamlilikni baholash" so'rovnomasi va "Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish" so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti bo'yicha)

Chidamlilik	Muvaffaqiyatga erishish	0,489**
	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	0,479*
Muvaffaqiyatga erishish	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	0,491*

Izoh: (* r≤0,05, ** r≤0,01, ***r≤0,001).

Sinaluvchilarda chidamlilik va muvaffaqiyatga erishish so'rovnomalari bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinganda, inspektor-psixologlarda chidamlilik va muvaffaqiyatga erishish xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqador omillar ko'proq chidamlilik shkalasi: muvaffaqiyatga erishishda vaziyatni engib o'tish (r=0,489; r≤0,05), muvaffaqiyatsizlikdan qochish (r=0,479; r≤0,05); muvaffaqiyatga erishish shkalasi: muvaffaqiyatsizlikdan qochish (r=0,491; r≤0,05) o'rta darajada korrelyatsion aloqalarga kirishganligini ko'rish mumkin.

Keyingi jadvalda inspektor-psixologlarning Muvaffaqiyatga erishish – muvaffaqiyatsizlikdan qochish va shaxs irodaviy sifatlari so'rovnomalari bo'yicha o'zaro korrelyatsion bog'liqliklar aks ettirilgan.

7-jadval.

"Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish" so'rovnomasi va "Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish" so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti bo'yicha)

Muvaffaqiyatga erishish	Irodaviy mas'uliyatlilik	0,469*
	Jur'atlilik	0,535**
	Matonatlilik	0,491*
	Qat'iylik	0,574**
	G'ayratlilik	0,568**
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	Irodaviy mas'uliyatlilik	0,457*
	Jur'atlilik	0,449*
	Matonatlilik	0,469*
	Qat'iylik	0,477*
	G'ayratlilik	0,451*

Izoh: *-p <0,05, **-p <0,01, ***-p <0,001

Sinaluvchilarda irodaviy sifatlar va motivatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi imkoniyatlarni o'rganish so'rovnomalari bo'yicha omillar orasidagi korrelyatsion

aloqalar ko‘proq muvaffaqiyatga erishish shkalasi: irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,469; r≤0,05), jur’atlilik (r=0,535; r≤0,01), matonatlilik (r=0,491; r≤0,05), qat’iylik (r=0,574; r≤0,01), g‘ayratlilik (r=0,568; r≤0,01); muvaffaqiyatsizlikdan qochish: irodaviy mas’uliyatlilik (r=0,457; r≤0,05), jur’atlilik (r=0,449; r≤0,01), matonatlilik (r=0,469; r≤0,05), qat’iylik (r=0,477; r≤0,01), g‘ayratlilik (r=0,451; r≤0,01) kabi omillar orasida o‘rta darajada korrelyatsion aloqalar kuzatilayotganligini ko‘rsatgan.


Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, inspektor-psixologning irodaviy sifatlari o‘rtasida o‘zaro adekvat munosabatlar shakllangan ekan. Ayni paytda, mas’uliyatlilik, jur’atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat’iyatlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlar o‘rtasida muhim uzviy bog‘liqlik mavjud ekan. Faqatgina tashabbuskorlik va g‘ayratlilik xususiyatlarining boshqa irodaviy sifatlar bilan o‘zaro aloqadorligi kuzatilmagan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Inspektor-psixologlarni faoliyatga maxsus psixologik tayyorlashning ijtimoiy-psixologik asoslari»** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda tajriba avvalida sinaluvchilardan olingan metodika natijalarini yanada yaxshilash va inspektor-psixologlarda irodaviy sifatlarni belgilangan darajada rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan psixokorrektsion dastur va uni qat’iy kun tartibi asosida amaliyotga qo‘llash bo’yicha amaliy tavsiylar keng yoritilgan.

